



REKREATION RESURLARNI BAHOLASH VA TURISTIK MARSHRUTLARNI XARITALASH: ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

18-aprel 2025-yil



Buxoro-2025

Uds: 258.228.415.447.35

KBK: 75.81

“Rekreatsion resurslarni baholash va turistik marshrutlarni xaritalash: ilmiy-uslubiy yondashuvlar”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plami. 2025-yil 18-aprel: - Buxoro :

1. Qo`yidagi tarkibdan iborat dasturiy qo`mita

- | | | | |
|----|------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, a`zo; |
| 4. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d.,psofessor, a`zo; |
| 5. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 6. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a`zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |

2. Qo`yidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo`mita

- | | | | |
|-----|------------------|---|---|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, rais muovini; |
| 3. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d.,psofessor, a`zo; |
| 4. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 5. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a`zo; |
| 6. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 7. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Z.S.Nurov | – | Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 10. | O.X.Azimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 11. | M.S.Sayfullayeva | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 12. | N.R.Omonova | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

ISBN: 978-9910-743-12-2

	SYSTEMS.....	102
Raupov G'ayrat Soyibovich	MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING KONSEPTUAL MODELI.....	107
Mamaraimova Zaxro Axmat qizi	MUQADDAS SHAHAR MEROSINING GLOBAL E'TIROFI.....	109
Qilichov Muhriddin	BUXORO SHAHRI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN TURIZMDA BARQAROR FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI: GIS ASOSIDA.....	113
4-SHO'BA. TURIZM INFRATUZILMASI, MARKETING VA IQTISODIY SAMARADORLIK		
Dilshod Shoimardonqulovich Yavmutov	THE FORMATION OF ECOTOURISM INFRASTRUCTURE AND ITS ROLE IN REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT: THE CASE OF BUKHARA REGION.....	120
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Istamxo'ja Olimovich Davronov	NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN BUXORO MEHMONXONALARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI.....	124
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Kamol Yuldashev Sharifovich	JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN OVQATLANISH MASKANLARIDA YARATILGAN SHART- SHAROITLAR TAHLILI (BUXORO MISOLIDA)	128
Xodjayev Anvar Rasulovich	FRANCHAYZING ORQALI TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH: INFRATUZILMA, BRENDING VA MIJOZLAR TAJRIBASI.....	132
Akhmatova Mohigul Ergash qizi	APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF TRANSPORT SERVICES IN TOURISM.....	137
Abdullayev Abror Bozarboyevich	MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	142
Shoyimardonqulova Shahlo Dilshodovna	THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN THE BUKHARA REGION AND ITS IMPACT ON REGIONAL ECONOMIC EFFICIENCY.....	146
Gulmira Shavkatovna Isokova	MICE TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEKISTONDAGI TURIZM INFRATUZILMASINING ROLI: ZAMONAVIY MEHMONXONA, KONGRESS VA TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	149
Kurbanova Mohinur Khabib kizi	ZIYARAT TOURISM IN THE DIGITAL AGE: TRANSFORMATIONS, STATISTICS, FUTURE PROSPECTS.....	155
Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi	TARIXIY-MADANIY TURIZMNING AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	163
Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li	KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	166

- Hukumat va mehmonxona biznesi rahbarlari inklyuziv turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalar qabul qilishi zarur.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Buxoro mehmonxonalari xalqaro talab va standartlarga moslashib, nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun yanada qulay muhit yaratish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Buhalis, D., & Darcy, S. (2011). *Accessible tourism: Concepts and issues*. Channel View Publications.
2. Darcy, S., & Buhalis, D. (2021). *Accessible tourism: Concepts and issues*. Channel View Publications.
3. ISO 21902:2021. (2021). *Tourism and related services — Accessible tourism for all — Requirements and recommendations*. International Organization for Standardization. Retrieved from <https://www.iso.org/standard/72774.html>
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2023). *Disability and health*. Retrieved from <https://www.who.int>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). *Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni*. Retrieved from <https://www.stat.uz>
6. Packer, T. L., Small, J., & Darcy, S. (2018). *Tourism and disability: A review of international best practices*. *Annals of Tourism Research*, 72, 1-14.
7. Takayama, H., Nakamura, S., & Yamada, K. (2020). *Universal design in Japan's hospitality industry: A post-Olympics analysis*. *Journal of Asian Tourism Studies*, 10(2), 33-47.
8. U.S. Department of Justice. (2021). *Americans with Disabilities Act (ADA) standards for accessible design*. Retrieved from <https://www.ada.gov>
9. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific. (2022). *Inclusive tourism development in Asia-Pacific*. Retrieved from <https://www.unescap.org>
10. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *Tourism for all: Promoting accessibility in travel and hospitality*. Retrieved from <https://www.unwto.org>
11. Farmanov, E., Radjabov, O., Davronov, I., Yuldashev, K., Sharipov, B., & Ibragimov, N. (2024). *The necessity of developing mobile applications for people with disabilities*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 138, p. 02001). EDP Sciences.
12. Ibragimov, N., Davronov, I., Yuldashev, K., Radjabov, O., Farmanov, E., & Sharipov, B. (2024). *Inclusiveness of accommodation tools in Uzbekistan and the essence of inclusive tourism*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 141, p. 04044). EDP Sciences.

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN OVQATLANISH MASKANLARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI (BUXORO MISOLIDA)

Abror Turobovich Jurayev

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

Nutfillo Salimovich Ibragimov

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası professori

Kamol Yuldashev Sharifovich

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

e-mail: a.t.juraev@buxdu.uz,

n.s.ibragimov@buxdu.uz,


k.sh.yuldashev@buxdu.uz

Hozirgi kunga kelib zamonaviy moddiy texnikalar rivojlangan bir paytda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqib ular uchun sayohatlarini amalga

oshirish tobora qulayroq bo'lib bormoqda. Turizm sohasida ushbu kategoriyaga ixtisoslashtirilgan yo'nalishlarni "Inklyuziv turizm" yoki "to'siqsiz turizm" atamaları keng tarqalgan. Butun jahon turizm tashkiloti bergan ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 10% ini turli xil nogironligi bor shaxslar tashkil qilib, ularning aksariyat qismi faol ishlaydiganlar, ta'lim oladiganlar bo'lib hisoblanadi [1]. Oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarda (ayniqsa Yevropada) imkoniyati cheklangan shaxslar uchun turistik markazlarda, joylashtirish vositalarida, ovqatlanish maskanlarida ularning to'siqsiz harakatlanishi uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu mavjud infratuzilmalardan kelib chiqib, ko'pgina mamlakatlar inklyuziv turlarni ishlab chiqishadi.

Inklyuziv turizm bu nafaqat aravchada yuradiganlarni balkim, ko'rish va eshitish qobiliyati zaif bo'lganlar, keksa yoshidagi insonlar, noodatiy qaddi-qomatga ega bo'lganlar, kichik bolalariga ega bo'lgan ota-onalar, gapirolmayigan soqovlar, jismoniy, aqliy va ijtimoiy zaif kishilarni ham o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda ham ular uchun yaratilgan infratuzilmani tahlil qilish, tavsiya va takliflar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy konsepsiyasi bo'lib hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 650 millionga yaqin nogironlar bor (taxminan 10%), Yevropa mamlakatlarida nogironlar aholining 22% dan 37% gacha (Eurostat, 2007) - jami 60 millionni tashkil qiladi [2].

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston respublikasida 780 mingdan ortiq nogironlar istiqomat qiladi. Shulardan I guruh nogironlari 8,5%, II guruh nogironlari 71%, III guruh nogironlari 20,5%ni tashkil etadi. Nogironlar orasida 16 yoshgacha bo'lgan bolalar 97 ming kishini tashkil qiladi. Ish bilan band bo'lganlar soni qariyb 34 ming kishini tashkil etadi (16 yoshdan oshgan nogironlarning umumiy sonining taxminan 5 foizi). Shu bilan birga, nogironlikning eng og'ir shakllariga ega bo'lganlar (I guruh nogironlari) 3,5% ni, o'rtacha nogironlar (II guruh nogironlari) 55,8% va unchalik katta bo'lmagan kasalliklar (III guruh nogironlari) 40,7% ni tashkil qiladi. Shunday qilib, nogironlar bandligini ta'minlash dolzarbligicha qolmoqda [3].



1-diagramma. O'zbekiston respublikasida nogironlar istiqomati

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga tayangan holda bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bor shaxslar to'siqsiz sayohatlarni amalga oshirish imkonini yaratib berish kabi dolzarb masalalar turmoqda. Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-yanvar kuni "To'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Qarorda to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning sayyohlik obyektlarida erkin harakatlanishi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, barcha fuqarolarga turizm sohasida teng imkoniyatlar yaratish turizm sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolayotgani qayd etilgan. Bundan tashqari madaniy meros obyektlari, vokzallar, jamoat transporti va poyezdlarda nogironlar uchun liftlar, panduslar va tutqichlar o'rnatilishi, 2027-yilga borib 1000 nafar nogironligi bo'lgan fuqarolarning sayohat xarajatlarining 50 foizini davlat qoplaydi. Mehmonxonalar uchun ham subsidiyalar berilishi ko'zda tutilgan. Temir yo'l va jamoat transportida, shuningdek, barcha aeroportlar, vokzallar va avtovokzallarda ularga tegishli bo'lgan tashkilotlar mablag'lari hisobidan nogironlar va jismoniy

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun panduslar va “qulay” zinapoyalar to‘siqlari o‘rnatiladi, bort nogironlik aravachalari (nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus aravachalar) bilan ta‘minlanadi [4].

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlov natijalariga asosan ajratilgan grantlar hisobidan **Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasi va “InclUZ” mobil ilovasini** yaratish maqsad qilib olingan. Tadqiqotlarni amalga oshirishda biz birinchi bosqichda Buxoro viloyatida turistik obyektlarda, ovqatlanish maskanlarida, joylashtirish vositalarda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan mavjud sharoitlar o‘rganildi. Shu sababli, ushbu maqola Buxoro restoranlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari restoran xizmatlarini yanada inklyuziv va qulay qilishga, turizm sohasida barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot O‘zbekiston turizm sohasida inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Loyiha doirasida Buxoroning turistik destinatsiyalarda joylashgan 40 ta ovqatlanish maskanlari tahlil qilinib, 85 nafar turist ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi. Restoranlarni tahlil qilish jarayonida ko‘rish, harakatlanish va eshitish qobiliyati zaif kishilarga moslashgan turli xil savollarni tuzish orqali o‘rganildi. Savollar 3 guruhga bo‘lingan holda tuzildi. Birinchi guruh vakillari ko‘rish qobiliyati zaif kishilar uchun:

- Eshik atrofi rangli kontrastli belgilar, yerda taktil belgilari, vertikal temir dastasi;
- Hojatxona eshigini avtomatik tarzda ochadigan yerdan 1 metr balandlikda ovozli tugmali moslamani o‘rnatish;
- Katta bosma, taktil shriftida yoki har ikkalasida yozilgan tozalik xizmati, yoki bezovta qilmang belgisi mavjudligi
- Xodimlarining ko‘rish qobiliyati zaif bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsata olishi;
- Binoning kirish qismida ko‘zi ojizlar va ko‘rish qobiliyati zaiflar uchun maxsus radio informatorlar va yorug‘lik mayoqlarini o‘rnatilganligi.


Ikkinchi guruh vakillari esa eshitish qobiliyati zaif kishilar uchun quyidagi savollar:

- Binoning kirish qismida eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan va umuman eshitmaydiganlar uchun elektron yozuvli tablolar;
- Vizual eshik qo‘ng‘irog‘i;
- Vizual yoki tebranish signalizatsiyasi, uyg‘otish xizmati mavjudligi;
- Xodimlarining eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsata olishi;
- Eshiklarda maxsus mayoqlar mavjudligi.

Uchinchi guruh vakillari harakatlanish qobiliyati zaif kishilar uchun quyidagi savollar:

- binoning kirish joyi aravacha chiqish uchun moslashtirilganligi (maydoncha, pandus, eshik eni);
- binoning ichki qismi harakatlanishi zaif kishilar uchun mosligi (tutqichlar, aravacha kirish joylari), hojatxona va yuvinish xonalarining nogironligi bor shaxslar uchun mosligi;
- Xodimlarining nogironligi bor bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsata olishi;
- To‘xtash turargohi uchun qulaylikning mavjudligi;
- Obyektga kelish asosiy yo‘lagining holati;
- Bino atrofida harakatlanish uchun to‘siqlar mavjud emasligi kabi savollardan iborat bo‘ldi.

Ushbu savollar orqali hosil bo‘lgan natija yaxshi, o‘rta, qoniqarsiz baholash mezonlari bilan umumiy baholandi. Unda 12 ta restoran yaxshi, 23 ta o‘rta va 5 ta restoran qoniqarsiz baholandi. Hosil bo‘lgan ko‘rsatgichlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Buxoro viloyatida bugunga kelib asosan aravachadagi nogironlarga ixtisoslashtirilgan infratuzilmalar yo‘ga qo‘yilgan. Keyingi bosqichda barcha turdagi nogironligi bor shaxslar uchun ham umumiy ovqatlanish korxonalarida qulayliklarni yaratish maqsadida infratuzilmani takomillashtirish zaruratu tug‘ilmoqda.



2-diagramma. Buxoro restoranlarining baholanish ko'rsatgichi

Barcha qilingan tadqiqotlardan quyidagi taklif va tafsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xorijiy hamda mahalliy sayyohlarga ixtisoslashtirilgan ovqatlanish maskanlarida xalqaro standartlarga mos ravishda ya'ni jismoniy cheklangan shaxslar ehtiyojlariga muvofiq infratuzilmani tashkil etilishini davlat tomonidan nazorat qilishini ta'minlash lozim.

2. Restoran xodimlarini xususan offisiantlarni inklyuziv turistlarga xizmat ko'rsatish tartibi bo'yicha har doim tayyorgarlik darajasini oshirish lozim.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Buxoro restoranlari xalqaro talab va standartlarga moslashib, nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun yanada qulay muhit yaratish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Лепа К.А. К вопросу о развитии туризма для лиц с ограниченными возможностями, Социология культуры, духовной жизни, стр. 259.
2. Российский статистический ежегодник – 2009 / Федеральная служба государственной статистики. Статистический сборник. – М., Росстат, 2009–795 с.
3. <https://stat.uz/>
4. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/18/accessible-tourism/>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni. Retrieved from <https://www.stat.uz>
6. Кристина Кибукевич, Инклюзивные путешествия: как мир подстраивается под нужды людей с инвалидностью, 19 сентября 2023.
7. Farmanov, E., Radjabov, O., Davronov, I., Yuldashev, K., Sharipov, B., & Ibragimov, N. (2024). *The necessity of developing mobile applications for people with disabilities*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 138, p. 02001). EDP Sciences.
8. Ibragimov, N., Davronov, I., Yuldashev, K., Radjabov, O., Farmanov, E., & Sharipov, B. (2024). *Inclusiveness of accommodation tools in Uzbekistan and the essence of inclusive tourism*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 141, p. 04044). EDP Sciences.